XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON SHAHAR KENGASHI

Q A R O R I

2022 - yil 17 - dekabr VI-69-197-7-106-K/22 Kattaqo‘rg‘on shahar hokimligi

Kattaqo‘rg‘on shahridagi ayrim takror ko‘cha, maydon va qabristonlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

Shahar hokimligi huzuridagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining 2022-yil 28-sentabrdagi 2/39-sonli yig‘ilish bayoni, viloyat hokimligi huzuridagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining 2022-yil 04-oktabrdagi 13-13/36-36-sonli yig‘ilish bayoni, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 21-oktabrdagi 00832-sonli ekspertiza xulosasi hamda O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasiga asosan xalq deputatlari shahar Kengashining oltinchi chaqiriq, oltmish to'qqizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi raisining o‘rinbosari J.Sherovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarining nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda shahar hokimligi huzuridagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining 2022-yil 28-sentabrdagi 2/39-sonli yig‘ilish bayoni bilan tasdiqlangan shahardagi takror va qonun talablariga mos kelmagan ko‘chalarni nomlash bo’yicha takliflar 1-ilovaga, maydon hamda qabristonlarni nomlash bo’yicha

takliflar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar hokimligi huzuridagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasi (J. Sherov):

- o‘n kun muddatda mazkur qaror bilan tasdiqlangan shahardagi takror ko‘chalar, maydon, hamda qabristonlar nomlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazilish choralarini ko‘rsin;

- **bir oy** muddat ichida takror ko‘chalarga nom berilishi munosabati bilan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan barcha (zamonaviy va milliy dizaynda ko‘rsatkich belgilarini o‘rnatish, fuqarolar pasportlariga, muassasa va tashkilotlarning muhr va shtamplari hamda ish qog‘ozlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish va boshqalar) ishlarning sifatli bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

4. Ushbu qaror “Kattaqo‘rg‘on tongi” gazetasi hamda shahar hokimligi rasmiy veb-saytida e’lon qilinsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (U.Sharipova) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **G. Alimova**

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on
shahar Kengashining
2022 yil 17 dekabrdagi
VI-69-197-7-106-K/22-son qaroriga
1-ilova

Kattaqo‘rg‘on shahridagi takror va qonun talablariga mos kelmagan ko‘chalarni nomlash bo‘yicha TAKLIFLAR

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Eksport komissiyasining xulosasi
1	Ko‘cha	Oqoltin	Iftixor	Quyoshli	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2	Ko‘cha	Navbahor	Bog‘ishamol	Bog‘bonlar	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3	Ko‘cha	Zarifobod	Yangihayot	Turonzamin	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4	Ko‘cha	Qoriravot	Sadaf	Shahriobod	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5	Ko‘cha	Navbahor	Bo‘ston	Bo‘stonsaroy	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
6	Ko‘cha	Qoriravot	Beruniy	Subhidam	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
7	Ko‘cha	Nurobod	G‘ofur G‘ulom	Mirtemir	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
8	Ko‘cha	Nurobod	Mirzo Ulug‘bek	Muhammad Yusuf	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
9	Ko‘cha	Nurobod	Amir Temur	Mahmud Koshg‘ariy	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
10	Ko‘cha	Qo‘shhovuz	Yoshlik	Sharq yulduzi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
11	Ko‘cha	Islom Shoir	Cho‘lpon	Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
12	Ko‘cha	Islom Shoir	Furqat	Mahmudxo‘ja Behbudiy	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
13	Ko‘cha	Islom Shoir	Bobur	Abdulla Avloniy	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
14	Ko‘cha	Islom Shoir	Bahor	Najmiddin Kubro	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
15	Ko‘cha	Chordara	Navro‘z	Gulxaniy	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
16	Ko‘cha	Go‘zalkent	Oybek	Moturidiy	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
17	Ko‘cha	Alisher Navoiy	Nurobod	Marvarid	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
18	Ko‘cha	G‘arbmachit	Yangiobod	Qadriyat	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on
shahar Kengashining
2022 yil 17 dekabrdagi
VI-69-197-7-106-K/22-son qaroriga
2-ilova

Kattaqo‘rg‘on shahridagi nomsiz maydon va qabristonlarini nomlash bo‘yicha

TAKLIFLAR

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni MFY	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Eksport komissiyasining xulosasi
1	Maydon	Qoriravot	Nomsiz	Yangi Kattaqo‘rg‘on	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2	Qabriston	Nurobod	Nomsiz	Do‘stlik rus qabristoni	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3	Qabriston	Chig‘anoq qishlog‘i	Nomsiz	Mirzo Mullayev	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq